

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA BILAN TANISHING

Orziqulov Elnur O'Imasjonovich

Toshkent davlar yuridik universiteti

“Xususiy huquq” fakulteti talabasi

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan kuchga kirdi, bunga 30-aprelda bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bu qonunining birinchi moddasiga konstitutsiyaning yangi taxriri ilova qilingan. Bugunga qadar 1992-yildan biyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartirish kiritilgan edi, busafar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi taxriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida konstitutsiyadagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman aytadigan bo'lsak bosh qomus 65%ga yangilandi. Bunda ko'plab moddalarga o'zgarishlar kiritildi masalan :

Konstitutsiyamizning birinchi moddasidagi O'zbekiston suveren demokratik respublika degan jumlasini quyidagicha o'zgartirilmoqda, O'zbekiston boshqaruvining respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, boshqaruvining respublika shakli davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi. suvern davlat o'z hududida to'la to'kis mustaqil hukumronlik va mutloq yurisdiksiyaga ega bo'lishi demakdir. Dunyoviy davlatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bo'ladi, davlat dini va e'tiqodidan qat'i nazar barchaga bir xil munosabatda bo'ladi.

Ikkinchi o'zgarish 15-moddaga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqi makonning asosini tashkil qiladi. Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat, qonunlar balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishi, xususan, sudga murojat qilishga imkon beradi. Referendumda qabul qilingan qonunga binoan Oliy Sud 3 oy ichida plenium qarorini qabul qilish kerak. Bu qaror asosida sudlar tomonidan konstitutsiya normalarini to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi hujjat sifatida yagona sud amaliyoti joriy etiladi.

Navbatdagi moddamiz esa, 19- modda 2-qismida avval imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi, yangi tahrirda esa, imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi deb o'zgartirish kiritilgan bu bilan konstitutsiyaning ishlaymay kelayotgan normalaridan biri real hayotga moslashtirilmoqda. Axborotni izlash olish va tarqatishga bo'lgan huqlarni cheklashga faqat qonunga muvofiq faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ni, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliglarini himoya qilish, jamoat xafsizligi hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'iqlanadigan boshqa sirlarning oshkora etilishini oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi, shuni aytib o'tishim kerakki ijtimoiy axloq tushunchasi O'zbekiston qonunchiligiga hozircha kiritilmagan manashu modda bo'yicha inson huquqlari jamoat tartibini saqlash maqsadida chklanishi bo'yicham vakolatli organning huquqiy sharhiga zarurat bor.

O'qituvchilar haqida so'zlaydigan bo'lsak, Konstitutsiyaga o'qituvchilar haqida yangi modda qo'shildi, u ikki banddan iborat O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish sog'lom va barkamol avlodni shakillantirish hamda tarbiyalash xalqning madaniy hamda manaviy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida etirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning shani va qadir qimmatini himoya qilish ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Shu tariqa ustozlar huquq sohasi vakili bo'lmagan lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Konstitutsiyada nomi keltirilgan o'qituvchilardan boshqa kasb egalarining barchasi huquq sohasi vakillari.

O'zbekistonda 2022- yildan etiboran qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchas kalarini xususiylashtirish boshlangan shu bilan birga bir vaqtda o'tgan yili e'lon qilingan yangi konstitutsiya loyixasining birlamchi versiyasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni xususiylashtirish mumkun emasligiga ishora qilingan edi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiylashtirishga oid norma shakilga keltirildi. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiylashtirish mumkun bu konstitutsiyamizning 68-modda 2-qismida keltirib o'tilgan .

O'zbekistonning yangi taxrirdagi konstitutsiyasiga binoan Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilqilib o'zgartirildi. Prezidentning davlat boshlig'i maqomi ayni bir shaxs srunkasiga ikki mudatdan ortiq Prezidentning bo'lishi mumkun emasligi haqidagi qoida Prezidentning qasamyodi matni va Prezidentga ta'luqli boshqa aksaryat normalar o'zgartirishsiz qoldirildi. Ma'lumot uchun Prezidentning vakolat muddati 2003- yildaham 5 yildan 7 yilga o'zgartirilgan 2011-yilda esa qayta 7 yildan 5 yilga tushurilgan. Boshvazir lavozimini endi Prezidentning taqdim etadi, Prezidentning boshvazir nomzodini taqtim etishdan oldin parlamentga kirgan barcha partiyalarning fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazishi belgilandi. Qonunchilik palatasi prezident taqdim etgan nomzodlarni ko'rib chiqadi agar deputatlarning yarmidan ko'pi maqullasa boshvazir lavozimiga tastiqlanadi, agar deputatlar nomzodni uch arta rad etsa Prezidentning soni 100 nafardan 65 nafarga tushuriladi, 14 ta hududdan 16 nafardan emas 4 nafar senator saylanadi, Prezidentning tomonidan saylanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o'zgarish 2024- yilda bo'ladigan parlament saylovida kuchga kiradi. Qonunchilik palatasi sonini oshirmaslikka o'zgarishsiz qolishga qaror qilindi. Prezidentning muddatidan ilgari Prezidentning saylovini tayinlashga haqli ekani belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya
2. G.M.Tansikbayeva V.A.Kostetskiy Konstitutsiyaviy huquq asoslari 9-sinf darsligi